

"O'zkimyosanoat" AJ ishchi guruhi Quyi Chirchiq tumani "Paxtachi" MFY ishsiz yoshlari bilan tizimli ishlamoqda

// 09.04.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-ishchi-guruhi-quyi-chirchiq-tumani-paxtach>

Mamlakatimizda yoshlar bandligini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish borasida amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom etmoqda.

Jumladan, "O'zkimyosanoat" AJ ishchi guruhi tomonidan Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani "Paxtachi" MFY hududida istiqomat qiluvchi ishsiz yoshlar bilan manzilli va tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mazkur tashabbus doirasida hududdagi yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, bugun "O'zkimyosanoat" AJ ishchi guruhi ushbu hududda bo'lib, ehtiyojmand 2 nafar yoshga ish va ta'lim jarayonida foydalanish uchun zamonaviy kompyuter jihozlari topshirildi. Ushbu kompyuterlar yoshlarning bilim olish salohiyatini oshirish, axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish va kelgusida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda ushbu yoshlar tuman monomarkazida kasb-hunar o'rganishmoqda. Zamonaviy kompyuter texnikasi esa ularga ta'lim jarayonida sifatli bilim olish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash va mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ yoshlar bilan ishlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bunday ezgu ishlar izchil davom ettiradi.